

O‘ZBEKISTON VA AQSH YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

23-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari suhbat avvalida AQSH Prezidentini yaqinlashib kelayotgan yangi yil bayramlari bilan tabriklab, do‘st Amerika xalqiga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladi.

Donald Tramp, o‘z navbatida, O‘zbekiston yetakchisi va xalqiga o‘zining hamda AQSH xalqining samimiy salomi hamda tabriklarini yo‘llab, yangi yilda baxt-saodat, muvaffaqiyatlar va yangi zafarlar tiladi.

Prezidentlar oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini, shuningdek, O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollari batafsil ko‘rib chiqdilar.

Davlatimiz rahbari Prezident Donald Trampning joriy yilda ichki va tashqi siyosatda erishgan muvaffaqiyatlariga yuksak baho berib, uning o‘tkir xalqaro inqirozlar va mojaroalarni hal etish borasidagi samarali sa‘y-harakatlarini alohida ta‘kidladi.

Ikki tomonlama siyosiy muloqot va almashinuvlar, ayniqsa, yetakchilar darajasida faollashib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklikni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab bergani va uni aniq mazmun bilan boyitgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Fuqaro aviatsiyasi, avtosanoat, tog‘-kon sanoati, qishloq xo‘jaligi, infratuzilma, energetika va kimyo, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari hamda boshqa sohalarda o‘nlab milliard dollarlik qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Amaldagi loyiha va dasturlarni samarali ilgari surish hamda yangilarini ishlab chiqish maqsadida Amerika — O‘zbekiston ishbilarmonlar va investitsiyalar kengashi tashkil etildi. Qo‘shma Investitsiya fondini ta‘sis etish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda.

Hududlar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi mexanizmi ishga tushirildi. O‘zbekistonning uchta viloyati delegatsiyalari Amerika shtatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalarga alohida e‘tibor qaratildi. Shu ma’noda, ko‘p tomonlama hamkorlik, jumladan, “C5+1” formatining ahamiyati ta‘kidlandi.

Suhbat yakunida tomonlar oliy darajadagi faol muloqotlarni davom ettirish niyatini tasdiqladilar hamda amaliy hamkorlik bo‘yicha qo‘shma tashabbus va dasturlarni ilgari surishga kelishib oldilar.

O‘zbekiston Prezidenti Amerika yetakchisini o‘zi uchun qulay muddatda mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

O‘za

TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev to‘qimachilik sanoatida 2025-yil yakunlari hamda kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Joriy yilda tarmoqda erishilgan natijalar, ishlab chiqarish va eksport ko‘rsatkichlarining o‘shish dinamikasi, shuningdek, 2026-yilga mo‘ljallangan maqsadli rejalar atroficha ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, 2025-yilda to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi 134 trillion so‘mni tashkil etgan. Xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish 2,1 milliard dollarga yetgan. Eksport hajmi esa 2,5 milliard dollarni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan o‘shish ta‘minlangan. Tarmoqda band aholi soni 623 ming nafarga yetgani, kelgusi yilda ushbu ko‘rsatkichni 650 ming nafargacha oshirish imkoniyati mavjudligi ta‘kidlandi.

2026-yilda paxta xomashyosini qayta ishlashni yanada chuqurlashtirish hamda gazlama, trikotaj va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish ko‘zda tutilgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini 147 trillion so‘mga, eksportni esa 3,3 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Tarmoqda 2,2 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish reja qilingan. Buning evaziga 207 ming tonnalik sintetik, aralash ip, 397 million kvadrat metrlik gazlama, 224 million dona tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hamda 108 million kvadrat metr mato bo‘yash bo‘yicha qo‘shimcha quvvatlar barpo etiladi.

Shu bilan birga, tarmoqni barqaror rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim omillar ham qayd etildi. Xususan, paxta tolasiga bo‘lgan talabning bir qismi import hisobiga qoplanayotgani, moliyaviy resurslar qiymatining yuqoriligi, tashqi bozorlarda logistika xarajatlari ortishi va ayrim yo‘nalishlarda malakali mutaxassislar yetishmasligi soha oldida turgan dolzarb masalalar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Ushbu muammolarni hal etish maqsadida 2026-yil uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Jumladan, korxonalariga aylanma mablag‘ uchun 200 million dollar miqdorida imtiyozli kredit ajratish, 138 ta korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirish, 100 ta yangi korxonani eksport faoliyatiga jalb qilish rejalashtirilmoqda.

Xalqaro standart va sertifikatlarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratiladi. “Better Work”, “BCI”, “FWF”, “Organic EU” kabi dasturlar 60 ta korxonada tatbiq etiladi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari 15 ta korxonada joriy qilinadi. Shuningdek, tayyor mahsulotlar sifati bo‘yicha 24 turdagi tahlillarni o‘tkazuvchi zamonaviy to‘qimachilik laboratoriyasi tashkil etiladi.

Tarmoqda raqamlashtirishni jadallashtirish, ERP tizimlari va sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan. Bu jarayonga 40 ta korxona jalb etiladi.

Xorijiy hamkorlikni kengaytirish doirasida xalqaro sorsing kompaniyalari va yirik brendlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, marketing tadqiqotlari va xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish, xorijiy korxonalar relokatsiyasini rag‘batlantirish bo‘yicha aniq rejalar belgilab olingan.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan yondashuvlarni ma‘qullab, tarmoqda tayyor mahsulot ulushini izchil oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, investitsiya va eksport salohiyatini to‘liq ishga solish bo‘yicha mas‘ullar oldiga aniq vazifalarni qo‘ydi. Barcha chora-tadbirlar tarmoqni barqaror, raqobatbardosh va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan tizimga aylantirishga xizmat qilishi zarurligi ta‘kidlandi.

O‘za



Munosabat

KUNCHIQAR YURT MO‘IJIZASI VA O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARINI BIRLASHTIRGAN NUQTA

Yaponiya ilg‘or zamonaviy texnologiyalar, yuqori qiymatli iqtisodiyot va sanoat ishlab chiqarishi, qayta ishlash va chiqindisiz turmush tarziga erishish yo‘nalishida jahonning yetakchi mamlakatlari safida turadi. O‘zbekiston va Yaponiyani ildizlari Buyuk ipak yo‘li davriga borib taqaladigan ko‘p asrli tarixiy aloqalar, o‘zaro yaqin mentalitet, o‘xshash qadriyatlar bog‘lab turadi.

Yaponlar ona tabiatga bo‘lgan hassos munosabati, atrof-muhitni e‘zozlashi bilan jahonga namuna ko‘rsatadi. Ulkan taraqqiyot yo‘lini inson va tabiat bilan o‘zaro uyg‘unlashtira olgan mamlakat sifatida bilimiz Yaponiyani.

Prezidentimizning 18-20-dekabr kunlari Yaponiyaga rasmiy tashrifi hamda

o‘tkazilgan oliy darajadagi muloqot va uchrashuvlar, xalqaro miqyosdagi tadbirlar davlatlarimiz hamkorligini butunlay yangi bosqichga olib chiqishi bilan tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Davomi 2-betda

Yangi farmon — yangi huquqiy asoslar

KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGI YANGI BOSQICHDA

Bugun mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo qilish jarayonida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari kabi sud-huquq tizimini demokratlashtirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinligini samarali himoya qilish bo‘yicha tarixiy ahamiyatga ega izchil qadamlar qo‘yilmoqda.

Joriy yil mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sud tashkil topganining 30 yilligi nishonlangan bo‘lsa, ana shu davrda to‘plangan milliy va xorijiy tajriba hamda ilg‘or zamonaviy tabalar asosida sud faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish dolzarb masalaga aylandi.

Prezidentimizning shu yil 18-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi sa‘y-harakatlarning yana bir muhim natijasi bo‘ldi.

Ushbu farmonni uzoq kutilgan tarixiy hujjat desak, hech ham mulolag‘a bo‘lmaydi.



Prezidentimizning konstitutsiyaviy odil sudloviga alohida e‘tibori natijasi o‘laroq ishlab chiqilgan mazkur farmon bilan Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirish va faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, ichki tuzilishi qayta ko‘rib chiqilib,

konstitutsiyaviy nazorat samaradorligini yangi pog‘onaga olib chiqishning yangi huquqiy asoslari vujudga keldi.

Davomi 3-betda

Baxt – intilganniki, g‘alaba – kurashganniki! Kelajakni mardlar, tarixni g‘oliblar yaratadi. Hamisha oldinga qarab intiling, bahodir o‘g‘lonlarim, oqila qizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Faxr



TARIX YARATAYOTGAN oltin avlod

Zafarlar zalvorli, marralar ulkan

Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon, Olamni mahliyo aylagan diyor!

Davlatimiz madhiyasidagi ushbu misralar Uchinchi Renessans poydevorini yaratish sari dadil qadam tashlayotgan yangi O‘zbekistonning bugungi ijtimoiy-ma‘naviy qiyofasini o‘zida to‘liq aks ettiradi.

Darhaqiqat, yurtimizda erishilayotgan olamshumul yutuqlar, “inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ulug‘vor tamoyilni qaror toptirish yo‘lidagi ulkan islohotlar tufayli “qudrati jo‘sh urgan” xalqimiz aqliyl va ma‘naviy salohiyatining bugungi amaliy natijalari tom ma’noda dunyoni hayratga solmoqda. Vatanimiz tarix uchun juda qisqa bo‘lgan davrda qo‘lga kiritayotgan zafarlari va ko‘zlayotgan marralari bilan olamni “mahliyo aylamoqda”.

Ya‘qinda BAAning Dubay shahrida o‘tkazilgan, qit‘amizning 35 davlatidan kelgan 1500 dan ziyod sportchi ishtirok etgan V Yoshlar paraosiy o‘yinlarida yutqoshlarimiz qo‘lga kiritgan tarixiy g‘alaba ham xalqimizning “ulug‘ qudrati”ni yana bir bor namoyish etdi. Yoshlarimiz O‘zbekiston paralimpiya harakati tarixida yangi sahifa ochdi — 99 oltin, 57 kumush, 41 bronza medal bilan umumjamoa hisobida Osiyo qit‘asida tengsiz ekanini isbotladi.

Davomi 5-betda



Atmosfera havosini muhofaza qilish bugun nafaqat ekologik, balki ijtimoiy masalaga aylangan. Chunki global muammo zamirida, avvalo, inson omili va uning salomatligini himoya qilish vazifasi turibdi. Ekologik harakatlarni amalga oshirishda ham bevosita odamlar asosiy ishtirokchiga aylanoqda. Masalan, fuqarolar o‘zi boshqarayotgan avtotransport vositasining ekologiyaga ta‘siri uchun mas‘uldir.

EKOLOGIK STIKER ENDI AVTOMOBILLARGA TOIFASIGA QARAB MAXSUS YORLIQ YOPISTIRILADI

Ushbu jarayon yurtimizda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-noyabrda tegishli qarori bilan tartibga solinmoqda. Unga ko‘ra, O‘zbekistonda yangi mexanizm — avtotransport vositalaridan chiqariladigan zararli moddalarni nazorat qilishga qaratilgan “ekologik transport” tizimi joriy etilyapti. Yangi tizim bilan 2026-yil 1-yanvardan boshlab barcha avtotransport vositalarini ekologik toifa va sinflarga ajratish hamda ular asosida ekostikerlar berish tartibi belgilandi.

Ekologik stikerlar haqidagi ma‘lumotlar avvalroq paydo bo‘lgani bois, yurtimizda ularning joriy etilishi va keyinroq transport vositalari

hududlarda ana shu ekologik belgiga ko‘ra harakatlanishidan ko‘pchilikning xabari bor. Hatto odamlar orasida “Yaqinda eski mashinalar shaharga kira olmaydi, cheklov o‘matiladi, faqat ekologik toza avtomobillargina ko‘chalarda harakatlanishi mumkin”, degan fikrlar paydo bo‘lgan. Ya‘ni yurtidoshlarimiz yangi tizim haqida ozmi-ko‘pmi xabardor. Ammo uning qachondan boshlab, kimlarga amal qilishi, tartib-qoidalari haqida ko‘pchilik bilmasdi.

Davomi 4-betda



KUNCHIQAR YURT MO'JIZASI VA O'ZBEKISTON TASHABBUSLARINI BIRLASHTIRGAN NUQTA



Abdushukur HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi fraksiya rahbari

Boshlanishi 1-betda

Yangi avlod raqamli texnologiyalarini yaratish, sun'iy intellekt, tog'-kon sanoati va qayta ishlash, quyosh, shamol, "yashil" vodorod kabi muqobil energiya manbalariga

ortga qaytmas islohotlarni bugun Yaponiya ham izchil qo'llab-quvvatlamqda.

Prezidentimiz tashrif davomida Tokioda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqotining birinchi sammitida ishtirok etdi. Mintaqamizning tobora kengayib borayotgan serqirra formatdagi aloqalarida "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqoti bu jarayonga o'ziga xos yangi nafas olib kirishi kutilmoqda. Sammit davomida davlatimiz rahbari ilgari surgan dolzarb tashabbus va takliflar ham buning yaqqol tasdiqi.

Avvalo, Markaziy Osiyo mintaqasining kunchiqar yurt bilan ushbu yangi formatdagi aloqasini yorqin istiqbolga ega, deya prognoz qilish mumkin.

Birinchidan, mintaqamizning boy tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, tog'-kon sanoati, nodir metallarni qayta ishlash borasida Yaponiya texnologiyalari yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ikkinchidan, "yashil" energiya tarmoqlarini kengaytirish, atmosfera havosi tozaligiga erishish, raqamli texnologiyalarda yapon tajribasi biz uchun har tomonlama yaqin va qulay hisoblanadi.



“

Sammitda O'zbekiston yetakchisi "yashil" rivojlanish, jumladan, "yashil" energiya va "yashil" transformatsiya masalalariga mintaqamiz va Yaponiya jamoatchiligi e'tiborini qaratdi. Bugun dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun dolzarb bo'lib turgan iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni sanab o'tdi.

o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

"Markaziy Osiyo +" muloqotining tashabbuskori Yaponiya hisoblanadi. Bundan yigirma yil muqaddam aynan kunchiqar yurt ilk bor ushbu formatdagi muloqot tashabbuskori bo'lganini davlatimiz rahbari o'z nutqida alohida qayd etdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Buyuk ipak yo'li davridan rivojlangan boshlagan yaqin savdo va madaniy aloqalar, o'xshash an'ana va urf-odatlar, ma'naviy, madaniy va oilaviy qadriyatlar Markaziy Osiyo va Yaponiya o'rtasida ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asosdir.

Sammitda O'zbekiston yetakchisi "yashil" rivojlanish, jumladan, "yashil" energiya va "yashil" transformatsiya masalalariga mintaqamiz va Yaponiya jamoatchiligi e'tiborini qaratdi. Bugun dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun dolzarb bo'lib turgan iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni sanab o'tdi. Aynan bu borada

Yaponiya tajribasi e'tirof etildi. Bu mamlakat zararli gazlarni atmosferaga chiqarishni to'liq bartaraf etishga erishish borasidagi vazifalarni bajarishda jahonda yetakchidir.

"Biz O'zbekistonda zaharli gazlarni chiqarishni 2035-yilga borib 50 foiz qisqartirish, 2030-yilgacha umumiy generatsiyada "yashil" energiya ulushini 54 foizga yetkazishni maqsad qilib qo'yganmiz. Energetik o'tish va "yashil" energetikani rivojlantirish bo'yicha samarali issiqlik stansiyalari, quyosh va shamol energiya qurilmalarini barpo etish, kogeneratsiya, yo'qotishlarni qisqartirish, zararli gazlarni ushlab qolish va foydalanish texnologiyalarini joriy etish kabi aniq loyihalarni birgalikda ishlab chiqishni taklif etamiz", dedi O'zbekiston rahbari. Shu bilan birga, Toshkentda qayta tiklanadigan energetika sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha mintaqaviy markazni tashkil etish taklifini bildirdi.

Mamlakatimiz so'nggi yillarda bu yo'nalishda salmoqli islohotlarni boshladi. Davlatimiz rahbarining "Ekologiya va turizm sohasida aholi talablariga tezkor javob



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishning tezkor va samarali boshqaruvi shakllantirildi. Boshqacha aytganda, mamlakatimiz tarixida ekotizimni boshqarish borasida mutlaqo yangi, strategik davrga asos solindi. O'zbekiston Ekologik partiyasi hamda parlamentdagi fraksiyasi bu borada samarali jamoatchilik hamda parlament nazoratini olib bormoqda.

Yaponiyaning "Yashil transformatsiya" tashabbusi mintaq mamlakatlari tomonidan qabul qilingan Markaziy Osiyo uchun "Yashil kun tartibi" dasturini amalga oshirishda uyg'un va hamohang ekani qayd etildi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston rahbari mintaqada havo sifatini yaxshilash bo'yicha atmosferaga chiqarilayotgan gazlarni monitoring qilish, filtrlash va kamaytirish, aholi uchun yanada barqaror va xavfsiz ekologik muhitni yaratish uchun ilg'or yechimlarni



qo'llashga qaratilgan qo'shma dasturi ishga tushirish, iqlim o'zgarishi bilan kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida, Orolbo'yi ekologik muammolarini hal qilishga ko'maklashish va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha loyihalarni qamrab oladigan qo'shma harakatlar dasturini qabul qilish, muloqot doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining yangi shakldagi uchrashuvlarini tashkil etish taklifini bildirdi.

Bu chegara bilmas ekologik muammolarga birgalikda samarali kurashishda ayni muddoddir. Chunki atmosferaga chiqarilayotgan zaharli gazlarga birgina mamlakat yoki mintaq

muammosi sifatida qarash kerak emas. Yoki Orolbo'yidagi ekologik vaziyat mintaqalar chegarasidan tashqariga chiqayotgani kundek ravshan. Shuning uchun bu muammolarga "Markaziy Osiyo + Yaponiya" kabi yirik muloqot formatida javob izlanayotgani eng to'g'ri yo'ldir.

Jahon geologik xaritasida Markaziy Osiyo mintaqasi ham seysmik faol hududlar toifasida turadi. Yaponiya esa seysmologiya bo'yicha ancha xatarli fojialarni boshdan o'tkazgan, bu muammoga yechim topishda katta tajriba to'plagan mamlakat. Shu bois, Prezidentimiz Yaponiyaning seysmik xavfsizlik sohasidagi ulkan tajribasini hisobga olib, Seysmik barqarorlikni baholash va amalga oshirish bo'yicha qo'shma dasturi ishga tushirish taklifini bildirdi.

Umuman, ushbu sammit siyosiy, iqtisodiy, barqaror rivojlanish, investitsiya, raqamli texnologiyalar, transport-logistika, fan-ta'lim va boshqa muhim sohalarida o'zaro hamkorlik bo'yicha konstruktiv muloqot maydoni bo'ldi. O'zbekiston yetakchisi bildirgan takliflarning barchasi ishtirokchi mamlakatlar tomonidan faol qo'llab-quvvatlanganini esa kuchli pragmatik diplomatiyaning yana bir yaqqol ko'rinishi deyish mumkin.

Yaponiyaga tashrifning yana bir e'tiborli jihati, ushbu mamlakat savdo-iqtisodiy, biznes sohasi vakillarining O'zbekistonga faol qiziqishi bo'ldi. Prezidentimiz soha yetakchilari, yirik biznes vakillari, investorlar bilan uchrashuv davomida O'zbekistonda ular uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoit haqida alohida to'xtaldi.

Kunchiqar mamlakat bilan O'zbekiston o'rtasida parlamentlararo hamkorlik alohida o'rin tutadi. Ikki mamlakat parlament delegatsiyalari o'rtasidagi o'zaro tashrif va uchrashuvlar yakdil tus olgan. Parlamentlarda do'stlik guruhlari faol ishlamoqda.



Mamlakatimizda keyingi yillarda bola huquqlarining ishonchli himoyasiga qaratilgan yangi yondashuv va uslublar joriy etildi. Bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga doir maxsus qonunchilik bazasi yaratilib, uni ijro etish yuzasidan samarali huquqiy mexanizm yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, bola huquqlarini himoya qilish yo'nalishida yana ko'plab muhim va dolzarb masalalarni hal etishni bugun davrning o'zi talab etmoqda.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 19-noyabr kuni Oliy Majlis Senatining parlament saylovidan keyin o'tkazilgan birinchi majlisidagi nutqida ta'kidlaganidek, madaniyatimizga xos bo'lmagan oilalarga qarshi murosasiz munosabatda bo'lishimiz va ayovsiz kurashishimiz shart. Bolaning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiladigan, jismoniy va ruhiy azob yetkazishi mumkin bo'lgan barcha holatlarda davlat tomonidan tegishli huquqiy va ijtimoiy choralarni ko'rinishi qonun bilan mustahkamlab qo'yildi.

2024-yil 14-noyabrda sohada tarixiy ahamiyatga ega hujjat — "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun bilan bolalarga nisbatan zo'rvonlikning 6 ta shakliga ta'rif berilib, ularni sodir etishni taqiqlash hamda qonundan ta'qib qilishning huquqiy asoslari mustahkamlandi. Bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olishga doir chora-tadbirlar va ularni samarali amalga oshirish mexanizmi belgilandi.

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga ko'ra, ishtirokchi-davlatlarga bolani jismoniy va ruhiy zo'rvonlik, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik qilmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish, ota-ona, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoya qilishi shartliki belgilangan.

Mazkur xalqaro majburiyatning O'zbekistonda qay tarzda bajarilishi tahlili nuqtayi nazaridan bolaga nisbatan zo'rvonlikka oid xabarlar Bolalar



Surayyo RAHMONOVA,
Oliy Majlisning bola huquqlari
bo'yicha vakili, yuridik fanlar
doktori, professor

ombudsmani tomonidan alohida nazoratga olingan holda o'rganilmoqda. Mutasaddi idoralar bilan birga bunday mazmundagi har bir holat individual va har tomonlama o'rganilyapmi hamda zarur choralarni ko'rilmogda.

Jumladan, 2024-2025-yillarda jami murojaatlarning 21 foizini bolaga nisbatan sodir etilgan zo'rvonlik bo'yicha qonuniy chora ko'rish to'g'risidagi murojaatlar tashkil etdi. Ya'ni Bolalar ombudsmaniga yo'llangan har beshinchii murojaat bolaga nisbatan turli shakldagi zo'rvonlikka oid bo'lmoqda.

Mana shu kontekstda ushbu yo'nalishda faoliyatini samarali va ta'sirchan tashkil qilish uchun asos bo'ladigan hujjat — 2024-yilda qabul qilingan qonunga to'xtalish joiz. Zero, mazkur qonun bilan bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilishning mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yildi.

Qonunning asosiy maqsadi zo'rvonlikning oldini olish, undan jabr ko'rgan bolalar bilan ishlash tizimini yaratishdan iborat. Unga ko'ra, bolaning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini hamda qonun bilan himoyalangan boshqa huquq va erkinliklariga

tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan va uning asosiy ehtiyojlariga zid harakatlar yoki harakatsizlik, jumladan, internetdan foydalangan holda sodir etilgan harakatlar (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo'rvonlik deb e'tirof etiladi.

Hujjatda zo'rvonlik shakllari ilk bor aniq belgilab berildi. Jismoniy zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik, ruhiy zo'rvonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo'rvonlikning shakllaridir. Bular qonun bilan taqiqlanishi va ta'qib qilinishi qat'iy belgilandi.



Bolaning asosiy ehtiyojlari degan tushuncha qonundan mustahkamlandi. Bunda bolaning to'laqonli rivojlanishi, jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy va boshqa zarur sharoitlar bilan ta'minlash, xavfsizlik, ta'lim olish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish va imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar — bolaga ta'minlanishi shart bo'lgan asosiy ehtiyojlar doirasi belgilab berildi.

Ushbu qonun davlat bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllidan himoya qilish uchun huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni, jumladan, bola va uning oilasini qo'llab-quvvatlashi hamda bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlarini aniqlash va oldini olish, zo'rvonlik holatlari haqida xabar berish, ushbu holatlarni tergov qilish, aybdorlarni javobgarlikka tortishning muqarrarligini ta'minlash, zo'rvonlik qurbonlarini reabilitatsiya qilish, ularning huquqlarini tiklash va ijtimoiy moslashtirish mexanizmining huquqiy asosidir.

Ushbu qonun davlat bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllidan himoya qilish uchun huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni, jumladan, bola va uning oilasini qo'llab-quvvatlashi hamda bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlarini aniqlash va oldini olish, zo'rvonlik holatlari haqida xabar berish, ushbu holatlarni tergov qilish, aybdorlarni javobgarlikka tortishning muqarrarligini ta'minlash, zo'rvonlik qurbonlarini reabilitatsiya qilish, ularning huquqlarini tiklash va ijtimoiy moslashtirish mexanizmining huquqiy asosidir.

Xususan, har qanday turdagi zo'rvonlikdan jabr ko'rgan bola zo'rvonlik qurboni deb tan olinadi va u zo'rvonlikning barcha shakllidan himoyalani, zo'rvonlik holati yuzasidan davlat organlari yoki sudga murojaat qilish, bepul huquqiy, ijtimoiy, ruhiy va tibbiy yordam olish, himoya orderi talab qilish hamda yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarami qoplatish huquqiga ega.

Shuningdek, qonun bilan bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish uchun umumiy

va individual choralarni belgilanib, himoya orderi berish, jabrlangan yoki xavf ostidagi bolaga kompleks yordam ko'rsatish, bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganda uni qonuniy vakillari qaramog'idan olib qo'yish kabi ta'sirchan mexanizmga asos solindi.

Shu tariqa davlatimiz rahbarining sohaga alohida e'tibori va qat'iy siyosiy irodasi tufayli yurtimizda bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish jarayoni yangi, tarixan muhim huquqiy-institutsional bosqichga o'tmoqda.

"Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun ijrosini tizimli ta'minlash, bolalarning xavfsizligi va qo'llab-quvvatlashini kafolatlaydigan barqaror mexanizmlarni shakllantirish maqsadida joriy yil 17-dekabrda O'zbekiston Prezidentining "2026-2030-yillarda bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni imzolandi.

Strategiya bolalar uchun zo'rvonlikdan xoli muhit yaratish, xavf ostidagi bolalarni erta aniqlash hamda jabrlangan yoki zo'rvonlikka guvoh bo'lgan bolalarga kompleks yordam ko'rsatishni ustuvor vazifa sifatida belgilab, sohada yuritiladigan izchil, tizimli va idoralararo faoliyat uchun asosiy dasturilamal hujjatdir.

Unda bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy, psixologik, ta'lim va huquqiy xizmatlar ko'rsatishni kengaytirish, bolalar bilan ishlashda individual yondashuvni joriy etish, shuningdek, bolalar bilan ishlashda ijtimoiy yondashuvga asoslangan kichik hajmli, ochiq formatdagi markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan.

Bunday shakldagi markazlarning tashkil etilishi bola uchun xavfsiz va do'stona muhitni ta'minlaydi. U boshdan kechirayotgan murakkab vaziyatda maxsus va malakali yordam ko'rsatish imkonini yaratadi. Shuningdek, bolalar manfaatlarini tergov va sud jarayonlarida ishonchli ta'minlash, sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarni maxsus tayyorlanishdan o'tkazish va idoralar

o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlarini yagona elektron tizim orqali hisobga olish va monitoring qilish choralari muhim yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Bolalar o'z huquq va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qilishda kattalarga nisbatan zaifligi tufayli ish yurituvining barcha protsessual bosqichida ularga samarali yuridik yordam, vakillik hamda ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash kafolatlanishi shart. Strategiya bilan aynan ana shu kafolatlar ta'minlanishi mexanizmi yo'lga qo'yilmoqda.

Jumladan, bolaga qarshi jinoyatlar sodir etilganda jabrlanuvchi bolaga ruhiy ziyon yetkazmaydigan sharoit yaratish, zo'rvonlikka guvoh bo'lgan bolalarga alohida yondashuvni qo'llash, shuningdek, malakali advokat, psixolog va qonuniy vakillarni o'z vaqtda jalb etish va tezkor idoralararo o'ziga xos amaliyotni shakllantirish talab etiladi. Bu esa bola manfaatlari bilan ishlashga ixtisoslashgan kadrlar korpusini shakllantirishni talab etadi.

Strategiyaning yana bir ahamiyatli jihati, hujjatda ta'limdan chetda qolgan va ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasbga yo'naltirish, jamiyatga moslashtirish, oilalar bilan ishlash yo'nalishida bolaga nisbatan zo'rvonlik xavfini kamaytirish, ota-onalarni qo'llab-quvvatlash qamrab olingan. Ya'ni ijtimoiy xavf ostidagi bolalar bo'yicha ishlashda nafaqat qat'iy choralarni ko'rish, balki ota-onalarni ijtimoiy murakkab vaziyatlarda qo'llab-quvvatlash orqali oilaning bola uchun farovon va barqarorligini ta'minlash yondashuviga tayanilmoqda.

Zero, bugun farzandi uchun xavfsiz, jismonan va ruhan sog'lom muhit yaratish o'tanidek birlamchi vazifasi ekanini tushuntirish, bu borada ota-onalarning bilimi va ko'nikmasi, asosiysi, bolani bosim va tazyiqdan xoli usullarda tarbiyalash tafakkurini shakllantirish nihoyatda muhim.

2026-2030-yillarda bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi O'zbekistonda so'nggi yillarda bola manfaatlarini himoya qilish yo'nalishidagi progressiv va ortga qaytmas islohotlarning keyingi bosqichiga asos yaratuvchi hujjat sifatida sohada mutlaqo yangi formatdagi tarixiy davrga asos solmoqda. Umuman, hujjat bolalar uchun zo'rvonlikdan xoli, farovon holat yaratish nafaqat davlat, balki butun jamiyatning birdek vazifasi ekanidan dalolat beradi. Shuning uchun ham bolalar manfaatlarini ta'minlash yo'lida barcha sa'y-harakatimiz mustarak bo'lishi zarur.



KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGI YANGI BOSQICHDA



Mirzo Ulug'bek ABDUSALOMOV, Konstitutsiyaviy sud raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist

Boshlanishi 1-betda

2022-yil 20-iyun kuni davlatimiz rahbari Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi tarixiy ahamiyatga ega nutqida “Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekani, to'g'ridan to'g'ri qo'llanishi, insonning asosiy huquq va erkinliklari ajralmas va daxlsiz bo'lib, har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli ekanini qayd etilmoqda. Bularning barchasi Asosiy qonunning himoyachisi bo'lgan Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Mazkur sud, boshqa sudlardan farqli o'laroq, faqat Konstitutsiyaga bo'ysunadi hamda Asosiy qonunning ustunligi prinsipini ta'minlaydi. Bunda Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyat chiqargan hujjatlarda, inson huquq va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy prinsip hamda Konstitutsiya normalariga amal qilinishiga e'tibor qaratadi. Shu munosabat bilan Konstitutsiyaviy sud ishini tubdan o'zgartirish, uning vakolatlarini aniqlashtirish hamda hisobdorligini oshirish lozim”, degan edi.

Ana shu ma'noda, to'plangan tajriba va ilg'or xorijiy amaliyotni har tomonlama o'rgangan holda chuqur va puxta ishlab chiqilgan ushbu farmon mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligi va konstitutsiyaviy qonuniyligini ta'minlashga ta'sirini mustahkamlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish kafolatlarini kuchaytirish, shuningdek, sud jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir. Bu hujjat yurtimizda konstitutsiyaviy qonuniyligini ta'minlash va jamiyatda adolat prinsiplarini qaror topirish yo'lidagi navbatdagi katta qadam ekanini alohida ta'kidlamoqchiman.

Farmon konstitutsiyaviy nazorat samaradorligini oshirish, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirish, konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirish jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish hamda “O'zbekiston — 2030” strategiyasi maqsad va vazifalariga erishish uchun o'ziga xos muhim huquqiy hujjatdir.

Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida mustahkamlangan har bir shaxsning huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Bosh maqsad — xalqimizni rozi qilish

Yangi konstitutsiyaviy sharoitda suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo etish yo'lidan qat'iy borayotgan yangi O'zbekiston uchun yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning hayotda tutgan real o'rni va amaldagi ta'siri nafaqat davlat hokimiyati, balki har fuqaro uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunda Konstitutsiya faqat davlat tuzilishi va hokimiyat vakolatlarini belgilab beruvchi oddiy qonun emas, balki inson huquq va erkinliklarining eng oliy darajada kafolati mustahkamlangan asosiy hujjat. Shu ma'noda, Konstitutsiya ustunligini ta'minlash mexanizmi bo'lgan konstitutsiyaviy nazorat institutining samarali faoliyat yuritishi huquqiy davlatning asosiy omillaridan biridir.

Konstitutsiyaviy odil sudlov — demokratik huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi. U konstitutsiyaviy nazoratning oliy shakli, zamonaviy demokratik davlatning alohida talabi, zarur instituti bo'lib, Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash hamda mamlakatimizda konstitutsiyaviy qonuniyligini muhitini, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yaratishning ishonchli garovi vazifasini o'taydi.

Uning mazmun-mohiyati, avvalo, Konstitutsiyaviy sudni fuqarolar va yuridik shaxslar uchun haqiqiy himoya vositasiga aylantirish g'oyasi bilan uzviy bog'liq.

“

KONSTITUTSIYAVIY SUD JAMOASI USHBU FARMONNI OG'ISHMAY AMALGA OSHIRISH VA UNDA BELGILANGAN VAZIFALARNI IJRO ETISHGA ASTOYDIL KIRISHDI. KONSTITUTSIYAVIY SUDDA OLIY SUD VA BOSHQA MANFAATDOR IDORALAR BILAN BIRGALIKDA QONUNCHILIKKA MAZKUR FARMON TALABLARIDAN KELIB CHIQADIGAN O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR TO'G'RSIDA TAKLIFLAR ISHLAB CHIQISH UCHUN TAJRIBALI SUDYALAR, MUTAXASSIS VA EKSPERTLARDAN IBORAT TARKIBDA ISHCHI GURUH SHAKLLANTIRILDI.

Davlatimiz rahbari belgilab bergan ustuvor maqsadlar Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada xalqchil, ochiq va samarali qilishni ko'zda tutadi. Xususan, fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklashga xizmat qiluvchi mexanizmlarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu yondashuv Konstitutsiyaning mavhum normalar yig'indisi emas, balki har bir inson hayotida amal qiladigan, uning huquq va erkinliklarini real himoya qiladigan hujjat sifatida namoyon etadi.

Keyingi yillarda Konstitutsiyaviy sud ishida an'ana aylanib borayotgan ijobiy amaliyot ham faoliyatimizda yaxshi natija bermoqda. Ochiqlik va xalq oldida hisobdorlik kuchaytirilishi natijasida har yilning nihoyasida Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan Oliy Majlis palatalariga va O'zbekiston Prezidentiga taqdim etadigan mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniyligining holati to'g'risida axborotni ochiq sud majlisida ko'rib chiqishi yo'lga qo'yildi.

Mazkur axborot fuqarolar va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni chuqur o'rganish asosida, jumladan, Konstitutsiyaviy sudga bevosita O'zbekiston Prezidentining Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar tahlili asosida tayyorlanadi.



Uning murojaatlarni e'tiborsiz qoldirmaslik, konstitutsiyaviy qonuniyligini mustahkamlash bo'yicha xalqimiz bildirayotgan o'rinni e'tirozlar hisobga olinishidagi ahamiyati ortib bormoqda.

Jumladan, Konstitutsiyaviy sud yillik axborotlarida 2018-yilda — 7 ta, 2019-yilda — 5 ta, 2020-yilda — 6 ta, 2021-yilda — 4 ta, 2022-yilda — 7 ta, 2023-yilda — 14 ta, 2024-yilda — 15 ta taklif va tavsiya yuborilgan. Biroq mazkur axborotda ko'rsatilgan konstitutsiyaviy qonuniyligini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish davlat organlari uchun tavsiyaviy xarakterga ega.

Mamlakatimizdagi xalqchil siyosat natijasida soha va hududlardagi muammolar, odamlarning adolatlari takliflari o'rganilmoqda. Ular asosida xalqimizni rozi qiladigan qarorlar chiqarilmoqda. Shu bois, Prezidentimiz xalqimizning roziligini olish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish barcha rahbarlarning eng ustuvor vazifasi bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi.

Ana shu jihatlar e'tiborga olinib, farmonda Konstitutsiyaviy sudning mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniyligini holati to'g'risidagi axborotida qayd etiladigan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etishning samaradorligi va natijadorligini oshirish, amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishning o'ziga xos yechimi mustahkamlandi.

Xususan, birinchidan, axborotda qayd etilgan taklif va tavsiyalarni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan chora-tadbirlar rejasini Oliy Majlis palatalari kengashlarining qo'shma qarori bilan tasdiqlash hamda uning amalga oshirilishi ustidan nazorat o'rnatish belgilandi.

Ikkinchidan, mas'ul davlat organlari tomonidan Oliy Majlis palatalari kengashlari tasdiqlagan chora-tadbirlar rejasida nazarda

tutilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan belgilangan muddatlarda Oliy Majlis palatalari va Konstitutsiyaviy sudga axborot kiritish tartibi yo'lga qo'yilmoqda.

Chunki fuqarolar Konstitutsiyaviy sudning bevosita vakolatiga taalluqli bo'lmagan, ammo boshqa davlat idoralari vakolati doirasidagi konstitutsiyaviy huquqlarga oid masalalar, ularning qarorlaridan norozi yoki lozim darajada bajarilmasligi to'g'risidagi shikoyatlari mazmuni umumlashtirilgan holda yillik axborotda o'z aksini topmoqda. Bunday muammolar Konstitutsiyaviy sudning har yilgi axborotida muhokamaga qo'yish yo'li bilan hal etilmoqda. Bu kabi konstitutsiyaviy mexanizmlar tom ma'noda insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha davlatning oliy maqsadiga erishishda, xalqimizni rozi qilish borasida birga harakat qilishga undamoqda.

Farmonda Konstitutsiyaviy sudga kelib tushayotgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibini yanada takomillashtirish bo'yicha ham muhim qoidalar belgilandi.

Jumladan, Konstitutsiyaviy sudga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish huquqi subyekti bo'lmagan fuqaro yoki yuridik shaxs tomonidan Konstitutsiyaviy sudga taalluqli masala yuzasidan yo'llangan murojaatni endi Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan subyektda yuborish belgilandi.

Bunda Konstitutsiyaviy sudga murojaat



Konstitutsiyaviy sudga masala kiritilishini ta'minlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishida fuqarolar va yuridik shaxslarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish tartibi soddalashtirilib, ortiqcha byurokratik to'siq va ovoragarchiliklarning oldi olinadi. Shu orqali har bir shaxsning buzilgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini tiklash imkoniyati oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sud faoliyati islohotlarga hamohang rivojlanadi

Konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirish masalasi so'nggi yillardagi keng qamrovli sud-huqorq islohotlarining mantiqiy davomidir. 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan umumxalq referendumida yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi bilan konstitutsiyaviy shikoyat instituti konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Farmonda belgilangan normalar esa ana shu konstitutsiyaviy mexanizmlarni amaliyotda to'laqonli ishlatish uchun zarur tashkiliy va raqamli yechimlarni belgilab berdi.

Farmonning huquqiy mazmuni va ahamiyatini tahlil etganimizda uni shartli ravishda bir nechta yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish fuqarolarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

“

KEYINGI YILLARDA KONSTITUTSIYAVIY SUD ISHIDA AN'ANAGA AYLANIB BORAYOTGAN IJOBIY AMALIYOT HAM FAOLIYATIMIZDA YAXSHI NATIJA BERMOQDA. OCHIQLIK VA XALQ OLDDIDA HISOBDOIRLIK KUCHAYTIRILISHI NATIJASIDA HAR YILNING NIHOYASIDA KONSTITUTSIYAVIY SUD KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ISHLARINI YURITISH AMALIYOTINI UMUMLASHTIRISH NATIJALARI YUZASIDAN OLIY MAJLIS PALATALARIGA VA O'ZBEKISTON PREZIDENTIGA TAQDIM ETADIGAN MAMLAKATDAGI KONSTITUTSIYAVIY QONUNIYLIKNING HOLATI TO'G'RSIDA AXBOROTNI OCHIQ SUD MAJLISIDA KO'RB CHIQISHI YO'LGA QO'YILDI.

Ikkinchi yo'nalish — konstitutsiyaviy shikoyat qilinishi natijalari samaradorligini oshirish mexanizmlarini joriy etish uchun alohida konstitutsiyaviy qonun qabul qilish vazifasining qo'yilishi. Bu ishlab chiqiladigan qonun Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish qoidalarini, murojaatlarni qabul qilish va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishda samarali vosita sifatida alohida ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalari sud ishlarini yuritishda tezkorlik va shaffoflikni oshirishning samarali vositasidir. Farmonga muvofiq 2026-2027-yillarda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini to'liq raqamlashtirish, “E-KSUD” axborot tizimini bosqichma-bosqich joriy etish ko'zda tutilgan.

“E-KSUD” orqali fuqarolar va tashkilotlar elektron murojaatlar yuborishi, ko'rib chiqish bosqichlarini onlayn kuzatishi, ishtirokchilarga elektron xabarnomalar yuborilishi, sud majlislarida videokonferensiya tartibida ishtirok etish, audioyozuv va elektron bayonnoma

huquqlari va erkinliklarini bevosita Konstitutsiyaviy sudga himoya qilish imkonini beradigan muhim demokratik mexanizmdir.

Farmon konstitutsiyaviy shikoyatning natijadorligini ta'minlaydi. Bu o'zgarishlar konstitutsiyaviy shikoyatni formal normadan haqiqiy ishlaydigan huquqiy himoya vositasiga aylantiradi, inson huquqlarini sud orqali himoya qilish kafolatlarini kuchaytiradi.

Raqamlashtirish tezkorlik va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirish va raqamlashtirish ana shu maqsadlarga to'la mosdir.

Konstitutsiyaviy nazoratning kuchayishi huquqiy barqarorlikni mustahkamlaydi, inson qadri va huquqlarini himoya qilish kafolatlarini oshiradi, davlat va jamiyat o'rnatidagi huquqiy ishonchni kuchaytiradi. Bu esa umumiy taraqqiyot maqsadlari uchun muhim poydevor bo'ladi.

Farmonni ishlab chiqish chog'ida Avstriya, Germaniya, Koreya Respublikasi, Indoneziya, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi kabi mamlakatlarning

yuritish hamda zarur ma'lumotlarni davlat organlari bazalaridan elektron so'rovlar orqali olish imkoniyatlari ta'minlanadi.

Bunday raqamlashtirish fuqarolar uchun qulaylik yaratadi, ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytiradi, ish yuritish sifatini va sud qarorlarini qabul qilishda tezkorlikni oshiradi.

Sud hokimiyatiga ishonch — huquqiy davlat barqarorligining muhim sharti. Sud majlislarining ochiq o'tkazilishi, jonli efrilar orqali jamoatchilikka taqdim etilishi, qaror va ma'lumotlarning ochiq e'lon qilib borilishi Konstitutsiyaviy sudga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi.

“E-KSUD” doirasida sud majlislarini internet orqali jonli efrida translyatsiya qilish, axborotni interaktiv tarzda taqdim etish, foydalanuvchilar uchun qulay xizmatlar yaratish orqali Konstitutsiyaviy sud faoliyatida shaffoflikning yangi madaniyati shakllanadi. Ochiqlik orqali esa jamiyatda Konstitutsiyaga hurmat, huquqiy ong va madaniyat yuksaladi.

Konstitutsiyaviy sud jamoasi ushbu farmonni og'ishmay amalga oshirish va unda belgilangan vazifalarni ijro etishga astoydil kirishdi. Konstitutsiyaviy sudga Oliy sud va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda qonunchilikka mazkur farmon talablaridan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar ishlab chiqish uchun tajribali sudyalr, mutaxassis va ekspertlardan iborat tarkibda ishchi guruh shakllantirildi.

Konstitutsiyaviy sudning 2025-yil 19-dekabrda qabul etilgan “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-253-sonli farmoni ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlandi va ijroga qaratildi. Dastur bilan farmonning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, unda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tadbirlar aniq belgilab olindi.

Farmon davlatimiz huquqiy hayotida ulkan ahamiyatga ega hujjat. Uning ijrosi natijasida mamlakatimizda konstitutsiyaviy nazorat samaradorligi sezilarli darajada oshadi, fuqarolarning Konstitutsiyada mustahkamlangan huquq va erkinliklari yanada ishonchli himoyalanaadi.

Konstitutsiyaviy sud faoliyatida ochiqlik, raqamlashtirish, institutsional mustaqillik va ta'sirchanlik yo'nalishlaridagi o'zgarishlar sud organini yanada zamonaviylashtiradi, samarasini oshiradi va fuqarolarga yaqinlashtiradi. Bu jarayonda parlament va hukumat, sud hokimiyati organlari hamkorligi muhim.

Ushbu farmon talablarining izchil ijrosi Konstitutsiya ustuvorligi va adolat tantanasini mustahkamlaydi hamda “O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan ulug' maqsadlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Farmon O'zbekiston Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafildir, degan konstitutsiyaviy normani amaliyotga yanada samarali tatbiq etishga ko'maklashadi.

Eng muhimi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini, fuqarolarning Konstitutsiyaviy sudga ishonchini oshirish, shuningdek, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashga keng imkoniyatlar yaratadi.



EKOLOGIK STIKER

Endi avtomobillarga toifasiga qarab maxsus yorliq yopishtiriladi



Bugunning gapi



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Boshlanishi 1-betda

Endilikda avtomobillarga ekostiker yopishtirish tartibi belgilangach, mas'ullar keng jamoatchilikka yangi mexanizmning zarurati va uning amaliyotda qo'llanilishi haqida tushuntirishlar bermoqda.

— Avtomobillardan chiqadigan zararli gazlar atmosfera havosiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri sanaladi, — deydi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti YHXX axborot xizmati boshlig'i Zoyir Yo'ldoshev. — Bu bevosita atrof-muhit musaffoligi va insonlar salomatligi bilan bog'liq masala bo'lgani bois, yurtimizda ushbu holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tobora kuchaytirib borilyapti. Ayniqsa, Toshkent shahrida havo ifloslanishining oldini olishga qaratilgan qator ishlariga qaramay, atmosferaning ifloslanganlik darajasi yuqorilgicha qolayotgani harakatlarni yanada qat'iyatlash zarurati oshirmoqda. Shu maqsadda 2026-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston sharoitida “ekologik transport” tizimi kuchga kiriyapti. “Ekologik transport” tizimini hududlarda joriy etish uch bosqichda amalga oshiriladi. Yangi mexanizm birinchi bosqichda 2025-2027-yillarda Toshkent shahrida, ikkinchi bosqichda 2028-2030-yillarda Nukus shahri va viloyatlar markazlarida, uchinchi bosqichda esa 2031-2034-yillarda boshqa barcha hududlar amaliyotida qo'llaniladi.

Belgilangan tartib asosida transport vositalari ekologik toifa va sinflarga ajratilib, ularga “yashil”, “sariq” yoki “qizil” rangdagi ekologik stiker beriladi. Birinchi marta va yiliga bir marta stiker olish mutlaqo bepul bo'lib, fuqarolardan hech qanday summa talab qilinmaydi.

Bepul diagnostika tekshiruvi

Ekologik stiker transport vositasining atrof-muhitga zararini kamaytiruvchi qandaydir qurilma emas. U avtomobilning ekologik toifasini tasdiqlovchi elektron ma'lumotlarni o'z ichiga olgan maxsus yorliqdir. Bu yorliq

tegishli tekshiruvlardan so'ng transport vositasining old oynasi pastki o'ng burchagiga, ichki tomondan yopishtiriladi. Stikerning rangi u yopishtirilgan avtomobilning ekologiya uchun qanchalik xavfsiz ekanini bildirib turadi.

Ekostikerlar uch xil — yashil, sariq va qizil rangda bo'ladi hamda har biri ekologik toifalarni anglatadi. Yashil — “toza”, sariq — “o'rtacha”, qizil — “zararli” ekologik daraja belgilari hisoblanadi. Transport vositasining ekologik toifasi ishlab chiqaruvchi tomondan tasdiqlangan ekologik sinf (“yevro” standartlari) asosida, ekologik sinfi aniqlanmagan holatlarda esa diagnostika tekshiruvlari natijalariga ko'ra

“

EKOSTIKERLAR UCH XIL — YASHIL, SARIQ VA QIZIL RANGDA BO'LADI HAMDA HAR BIRI EKOLOGIK TOIFALARNI ANGLATADI. YASHIL — “TOZA”, SARIQ — “O'RTACHA”, QIZIL — “ZARARLI” EKOLOGIK DARAJA BELGILARI HISOBLANADI.

belgilanadi. Berilgan xulosa asosida avtomobil oynasiga “qizil”, “sariq” yoki “yashil” yorliq (stiker) yopishtiriladi.



— Mamlakatimizning barcha hududi bo'ylab transport vositalarini ro'yxatga olish — diagnostika markazi tashkil etilgan bo'lib, haydovchilar ekostikerlarni ana shu manzillarda bir necha daqiqa ichida olishi mumkin, — deydi Zoyir Yo'ldoshev. — Buning uchun maxsus ekologik operatorlar jalb qilingan. Ular zamonaviy qurilmalar yordamida transport vositalaridan chiqayotgan tutunni o'lchab, uning qaysi stikerga mosligini aniqlaydi. Diagnostika tekshiruvi natijalari esa “Avtomototransport hisobi” yagona elektron tizimiga kiritiladi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, ekostiker berish transport vositasining ishlab chiqarilgan yiliga bog'liq emas. Asosiy mezon avtomobilning ekologik sinfi (“yevro” standart) va uning texnik holatining amaldagi ekologik talablarga mosligi hisoblanadi.

Yangi tizimning qanday ishlashi Toshkent shahri Mirobod tumanidagi transport vositalari diagnostika tekshiruvi markazidagi tajriba amaliyoti misolida ko'rsatib berildi. Ekostiker berish tartibi real avtomobil misolida bosqichma-bosqich tushuntirildi. Haqiqatan, amaliyot bir necha daqiqa ichida mutlaqo bepul amalga oshirildi. Jarayonda 1996-yilda

ishlab chiqarilgan avtomobil diagnostika tekshiruvidan o'tkazilib, unga “yashil” ekostiker berildi.

Gap shundaki, gaz va dizelda yuradigan har bir mashinaning tutun chiqarish tizimi bo'ladi, o'shandan chiqadigan tutun miqdori, komponentlari va har bir komponentdagi alohida miqdori hisob-kitob qilinadi. Buni diagnostika markazlaridagi zamonaviy qurilmalar bemalol aniqlab beradi. Ularning natijalari asosida avtotransportlarga belgilangan stikerlar yopishtiriladi. Stikerlar ranglari zararining foizidan kelib chiqib belgilanadi. Yashil stiker avtomobilning texnik va ekologik holati yaxshi ekanini anglatadi. Qizil stiker olgan mashinaning tabiatga zarari yuqori bo'ladi va bu yorliq ogohlantiruv degani. Bunday mashina egasi imkon qadar qisqa fursatlarda aniqlangan texnik nosozlik, kamchiliklarni bartaraf etishi maqsadga muvofiq. Kelgusida esa qizil stikerli mashinalarning poytaxt bo'ylab alohida ajratilgan yashil hududlarda yurishiga cheklolvar o'rnatilib, nazoratga olinadi. Bu qandaydir ajratish, yangi cheklolvarlarni o'rnatish ma'nosida emas, shunchaki barcha transport vositalarini yashil stikerga o'tkazish har birimizning salomatligimiz, ekologiya uchun zarur.

Haydovchilar ekostikerni ikki xil tartibda olishi mumkin. Birinchisi, transport vositasini ro'yxatga olish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ekostiker avtomatik tarzda bepul beriladi. Ikkinchisi, foydalanishda bo'lgan transportlar uchun ixtiyoriy murojaat asosida ekostiker olinib, rasmiylashtiriladi. Yorliqdan foydalanish muddati belgilanmaydi, ammo ayrim holatlar, xususan, transport egasi yoki davlat raqami o'zgarganda, mashinaning old oynasi almashtirilganda, stiker shikastlanganda yoki o'chib ketganda uni qayta rasmiylashtirishga to'g'ri keladi.

Bir martadan ortiq qayta diagnostika va stiker olish esa bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari asosida to'lovi amalga oshiriladi. Boisi, yangi tizimga ko'ra, har bir transport vositasi egasi yiliga bir marta qayta diagnostika o'tkazib, ekologik toifani yaxshilash huquqiga ega.

“Ekologik transport” — nima u?

Haqiqatan, avtotransport vositalaridan chiqayotgan zararli gazlar bugun ekologik muhitni yomonlashtirayotgan asosiy omillardan biriga aylangan. Ayniqsa, xalqaro sifat standartlariga javob bermaydigan yonilg'i turlari atmosfera havosini jiddiy zararlayotgani tahlillarda ham ko'rsatilayapti. Yurtimizda 2026-yilga qadar A1-80 markali benzindan to'liq voz kechish talabi qo'yilgani bois ham shunda.

Ekostiker ham shunchaki baho yoki mashina oynasini “bezab” turishi uchun joriy etilmayapti. Bundan asosiy maqsad transport vositasining ekologiyaga chiqaradigan zararli ta'sirini kamaytirishdir. Ya'ni avtomobilni bir yilda bir marta diagnostika tekshiruvidan o'tkazish orqali tegishli toifadagi stiker berilgach, uning hududlarda harakatlanishi ham shu asosda belgilanadi.

Ya'ni “ekologik transport” tizimi orqali ikkita mexanizm joriy etilyapti. Birinchisi, transport vositalariga ekostiker berish tartibi bo'lsa, ikkinchisi, ekologik zonalarni belgilash amaliyotidir. Ma'lumotlarga ko'ra, hududlardagi ekologik zonalar chegaralari Xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan Ekologiya qo'mitasi taklifiga asosan belgilanadi. Bunday zonalarning alohida jihati shundaki, ularda “o'rta” va “zararli” ekologik toifalarga mansub hamda ekologik stikeri mavjud bo'lmagan avtomobillarning harakatlanishi taqiqlanadi.

— Ekologik zonalar ballik tizim asosida belgilanadi, — deydi Davlat ekologik ekspertizasi markazi bosh direktori maslahatchisi Islom Xushvaqov. — Bu asosan shaharning eng ifloslangan, sanoat korxonalari mavjud ayrim kichik hududlar bo'lishi mumkin. Bu hududlarga “sariq” hamda “qizil” toifadagi yoki ekostikersiz mashinalar kirishiga ruxsat berilmaydi. Faqat belgilangan tartibda va miqdorda kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirgan hamda ekologik zona hududida doimiy yashovchi yoki mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar mazkur hududda cheklov va taqiqlarsiz harakatlanish huquqiga ega bo'ladi. Boshqa choras ham bor. Ya'ni “sariq” yoki “qizil” ekostiker berilgan transport vositasi diagnostika jarayonida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, bepul tarzda qayta tekshiruvdan o'tish va ekostikerni yangilash huquqiga ega.

“Yashil” stikerlar haqida gap borganida, ko'pchilikning ko'z oldiga elektromobillar keladi. Ammo mutaxassislarining aytishicha, bu tushuncha noto'g'ri. Chunki elektromobillardan tabiatga hech qanday zararli gazlar chiqarilmagani bois, ekologik ko'rikdan o'tkazish amaliyoti ularga tegishli emas. Qolaversa, ayrim turdagi transport vositalari uchun ham hech qanday ekostiker olish talab qilinmaydi. Xususan, skuter, moped va uch g'ildirakli transportlar, jamoat transporti (taksi va yo'nalishli taksidan tashqari), tezkor va maxsus xizmat mashinalari, tranzit orqali harakatlanayotgan, O'zbekistonda 90 kungacha vaqtincha bo'lib turgan transport vositalari kabilarga nisbatan ekostiker olish talabi tatbiq etilmaydi. Ishlab chiqarilganiga uch yildan oshmagan g'ibrid avtomobillar ham “toza” toifali transport vositalari hisoblanadi. Alohida ro'yxatga kirmaydigan transport vositalari esa kelasi yil boshidan diagnostika tekshiruvidan o'tkazilib, ekostiker olishiga to'g'ri keladi.

Fuqarolar esa ekostiker olish orqali o'z avtomobilining atrof-muhitga qanchalik ta'sir ko'rsatayotganini bilish barobarida bu borada mustaqil nazoratni amalga oshiradi. Shu tarzda ekologik chora-tadbirlarning asosiy ishtirokchilaridan biriga aylanadi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

To'rt yil avval Farrux aka yer olib, bog' barpo etish istagida tuman hokimligiga bordi. Avvaliga o'zicha ish oson bitadi deb o'ylagandi. Unday bo'lmadi. “Erta keling, indin keling” bilan vaqt o'tdi. Bariga qo'l siltab, boshqa ish qilmoqchi bo'ldi. Ammo rejasidan tanish-bilishlar xabar topgan, endi eshitgan quloqqa yaxshimas. Yana boshlagan ishidan ortga chekinishga odatlanmagan. Oriyat ustida harakatdan to'xtamadi. Mas'ul rahbarlar qabuliga kirdi. Maqsadini tushuntirib, loyihasini taqdim etdi. Ma'qul ko'rildi.

Oradan ko'p o'tmay, unga tayyor tokzorni berishga qaror qilindi. Buni eshitgan Farrux aka mamnun bo'ldi. Demak, katta bog' ishonib topshirilar ekan, ishonchni oqlash lozim. Albatta, kelgusida tonnalab hosil yetishtirib, bog'ni yanada ko'rkam qiladi. Shu o'yda hujjatlarni tayyorladi. Ish tezlashib ketdi.

Oradan ikki kun o'tdi. “Farruxbek Turdiali ota nabirasi” fermer xo'jaligi uchun bog' ajratildi. Qulay jihati bog' o'zi voyaga yetgan Shahrisabz tumanining Qutchi qishlog'i yaqinida edi. Xushxabardan ko'ngli ko'tarilgan fermer dalaga yo'l oldi. Ammo aytilgan yerga kelib, hayratdan yoqa ushladi. Adashdim shekilli, degan o'yda qo'lidagi hujjatga ilova qilingan xaritaga qaradi. Xuddi shu joy ko'rsatilgan. Afuski, tokzordan asar yo'q edi. Dalani ko'zdan kechirib, bir paytlar yashnagan tok o'rmda quruq to'nkalamni ko'rdi. Hafsalasiz bir ahvolda o'tirib qoldi. Nima qilishni bilmasdi. Olamjahon orzusi bir daqiqada puchga chiqdi. Avvalroq surishtirganida ba'zilar bog' borligini aytgandi. Balki ular ham ancha oldin ko'rgan, hozirgi zaviyatidan bexabar bo'lsa kerak. Ancha muddat tushkun kayfiyatda o'tirdi. O'zicha chora izladi. Kimdan maslahat olishni



o'yladi. Ortga qaytishga esa andisha qildi. Oxiri: “Nima bo'lsa bo'lar, shu tashlandiq joyda bog' barpo etaman, ko'rganlar lol qolsin”, degan shahd bilan o'rmidan turdi.

Shunday ishga kirishdi. Dastlab traktor olib kelib, maydonni tozaladi. Eski bog'dan qolgan shox-shabbalarni terib chiqdi. Bir hafta mehnat qilib, atrofini binoyidek holatga keltirdi. Endi yer haydab, daraxt ekishga hozirlik ko'radigan

bo'ldi. Maydonning bir qismida issiqxona qurib, limon ekishni rejalashtirdi. Bahor yaqinlashib qolgani bois, tezroq harakat qilish lozim edi. Farrux aka unim bilmay ishladi. Nihol ekish mavsumigacha yer tayyor bo'ldi. Tanishlaridan surishtirib, uzum, anor, gilos, olma va yong'oq ko'chatlarini olib keldi. O'zi bosh bo'lib, farzandlari bilan birga ekdi. Hisoblab ko'rsa, 5000 ga yaqin ko'chat o'tqazibdi. Endi buni

ko'kartiish lozim, ammo oson bo'lmagligi aniq. Yaqin atrofdegilar ham bu yerda niholni ko'kartiish mushkul ekanini aytdi. Imkoni bo'lsa, bog' qilishga behuda vaqt sarflamaslikni maslahat berdi.

Bahor seryog'in kelgani nihollar uchun yaxshi bo'ldi. Saraton boshlangach, fermerning xavotiri ortdi. Qo'lga chelak olib, suv tashishga kirishdi. Ko'chatlarning har birini erinmay sug'ordirdi. Erta tongdan tunga qadar suv tashish bilan vaqt o'tkazdi. Har bir nihol bilan tillashib, hol-ahvolidan xabardor bo'ldi. Jaziraman talafotsiz o'tib olgach, ko'ngli xotirjam tortdi. Yashnab turgan nihollarga qarab, mashaqqati unutildi. Keyingi yilda esa ariq qazib suv keltirdi.

— Kishi maqsadi sari intilsa, har qanday og'ir ishni ham uddalashi mumkin, — deydi Farrux Po'latov. — Bugun bog'ni ko'rgan kishi albatta qoyil qoladi. To'rt yil oldin ekilgan nihollar to'liq hosilga kirdi. Shunga yarasha daromad keltirmoqda. Jumladan, o'tgan yili birinchi hosilning o'zidan 20 tonnaga yaqin uzum oldik. Besh tonna gilos, 4 tonna olxo'ri, 3 tonnaga yaqin anor, 2 tonna limon yetishtirdik.



Umumiy hisobda 600 million so'mga yaqin daromad topdik. Natijada bozorlarimizni o'z o'ziga, el dasturxonini to'kin bo'lishiga hissa qo'sha boshladik. Besh kishi doimiy ish bilan ta'minlandi. 50-60 kishini mavsumiy ishlarga jalb etyapmiz. Joriy yilda yangi loyihalarni ishga tushiryapmiz. Ayni paytda yana bir issiqxona quridik. Unda asosan mandarin, apelsin kabi sitrus mevali ko'chatlar o'tqazildi. Shu bilan birga, nihollar orasiga qulupnay ekdik. Kelgusi yilda yana bitta issiqxona qurish rejamizda bor.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi rahbari sifatida Farrux Po'latov tashlandiq yerda bog' barpo etib, o'tgan yilning o'zida 600 million, joriy yilda esa 800 million so'mga yaqin mablag' ishlab topdi. Bundan tashqari, o'tgan yildan boshlab asalari boqishni yo'lga qo'ygan. Ko'chatlilik bilan ham shug'ullanayapti. Bu yil joriy kuzgi mavsumda 20 ming tup ko'chatni sotishga hozirlik ko'rmoqda.

— Bog'dorchilikka bolaligimdan qiziqaman, — deydi fermer. — Shu sabab ko'chatlilikni

ham yo'lga qo'ydik. Har bir niholni o'zim payvand qilib, ko'paytirypman. Ertaga o'zim yetishtirgan nihollar turli joylarda meva berib, atrofini yashillikka burkasa, quvonaman.

Kitob o'qigan, daraxt ekan kishining qalbidagi ezgulik bo'ladi. Faqat yaxshilik ulashishga intiladi. Yana bir gap. Farrux aka nafaqat dalada, balki tomorqasida ham bir qarich yerni bo'sh qoldirgani yo'q. Olti sotixli hovlisida xurmo, anor, olma ekib yaxshigina hosil olmoqda. Hovlida yetishtirilgan mevalarning daromadi farzandlarining o'qishi uchun ajratilgan. Bundan tashqari, fermer o'z hisobidan qishloqdagi maktabning a'lochi o'quvchilari uchun oylik stipendiya ham joriy etgan. Bu esa yosh avlodning bilim olishga qiziqishini oshirmoqda. O'tgan yili Farrux Po'latov oilasi viloyat miqyosida “Eng namunalii oila” sifatida e'tirof etildi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



O'ramizdagi odamlar

TASHLANDIQ YERDAN MILLIONLAB DAROMAD TOPAYOTGAN FERMER



Shuhrat ORIF,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi, shoir

► Boshlanishi 1-betda

Cheksiz faxr beradigan jihat shuki, mazkur tumir davomida O'zbekiston madhiyasi qariyb 100-marta yangiradi!

Futbol bo'yicha milliy terma jamoamiz tarixda ilk bor jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Talabalarimiz Xalqaro yozgi universiada o'yinlarida 116 davlat orasida ilk bor kuchli 15 talikka kirdi, Markaziy Osiyoda birinchi bo'ldi.

Shaxmatchimiz Javohir Sindorov 19 yoshida jahon kubogi sohibi bo'lganida ko'ksimiz tog'dek ko'tarildi!

Vatanimiz farzandlarining bunday buyuk zafarlari bugun chindan ham "ulug' xalq qudrati jo'sh urayotgani" va xalqimiz "olamni mahliyo aylayotgani"ning yorqin dalilidir.

Davlatimiz rahbari mustaqilligimizning 34 yilligiga bag'ishlangan tantanalii marosimda yoshlarga murojaat qilib, faxr-u g'ururimizga loyiq o'g'il-qizlarimiz timsolida bo'lg'usi xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolarni ko'rishini ta'kidlagan edi.

"Bugungi yoshlarimizning ovozi, g'oya va tashabbuslari, kuch-g'ayrati barcha soha va tarmoqlarga chiqur kirib bormoqda. Ular xalqimizning necha yillik orzu-armonlarini real haqiqatga aylantirmoqda", dedi Prezidentimiz.

Hozir dunyodagi eng yetakchi oliygohlarda 2000 dan ziyod talabamiz tahsil olmoqda. O'tgan yili yurtimiz yoshlari nufuzli 500 talikdan joy olgan oliygohlarga o'qishga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda peshqadam bo'ldi.

2025-yilda yurtimiz o'quvchilari tomonidan fan olimpiadalarida yangi natija qayd etildi: 29 ta xalqaro fan olimpiadasida jami 210 ta medal qo'lga kiritildi. Xususan, o'quvchilarimiz 40 oltin, 78 kumush, 92 ta bronza medalga ega chiqdi. Bu xalqimiz buyuk salohiyatining namoyishi emasini?!

Shu o'rinda qiyoslash uchun raqamlarni keltirib o'taylik. 2019-yilda — 30 ta, 2020-yilda — 25 ta, 2021-yilda — 45 ta, 2022-yilda — 41 ta, 2023-yilda — 96 ta, 2024-yilda — 128 ta medal qo'lga kiritilgan edi.

Yurtimiz o'quvchi qizlari ilk marta Yevropa qizlar matematika olimpiadalarida qatnashdi hamda 1 kumush, 2 bronza medal sohibi bo'ldi. Bu natijalar shunchaki raqamlar emas. Ular ajdodlarimizning uzoq yillik orzu-armonlari, xalqimizning bunyodkor ruhini o'zida ifodalaydi. Bunday olamshumul yutuqlar yangi O'zbekistonda oltin avlod kamolga yetayotgani hamda mamlakatimiz ko'zlayotgan ulkan marjalaral real va hayotiy zaminga ega ekani haqida butun dunyoga jar solmoqda.

Xalqni uyg'otayotgan o'zgarishlar

Har bir kunimiz, hayotimizda sodir bo'layotgan yangilanishlar yangi O'zbekiston g'oyasi amalda qudratli harakatga aylanganini bot-bot isbot etayotir. Qayerga qaramang, tarixiy voqealarga guvoh bo'lasiz. Har bir kunimizda unum, o'sish bor!

Bu olamda hech bir hodisa yoki natija o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. Har bir yuksalishning ortida tinimsiz mehnat, ulug'vor g'oyalari va xayrli tashabbuslar mujassam. Shu ma'noda, bugun yoshlarimiz qo'lga kiritayotgan salmoqli zafarlarni keyingi 8-9 yilda mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar samarasi desak aslo xato bo'lmaydi. Tizimli va muqarrar tus olgan bu islohotlar millatimizni ruhan uyg'otmoqda, jamiyatimizga bunyodkor g'oyalarni olib kirmoqda va shu tariqa odamlarni harakatga keltirmoqda. Eng muhimi, uzoqni o'ylab, izchil olib borilayotgan bu sa'y-harakatlar xalqimizning ma'naviy va aqliy salohiyatini yuzaga chiqaryapti.



TARIX YARATAYOTGAN oltin avlod

“ Bugun O'zbekiston erishayotgan olamshumul yutuqlar tasodifiy emas. Vatanimizda “ulug' xalq qudrati”ni jo'sh urdirib, minglab iste'dod egalarini maydonga olib chiqayotgan keng ko'lamli, puxta o'ylangan, izchil va aniq manzilli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning olamni mahliyo aylayotgan ulkan zafarlari Prezidentimizning xalqimizni qachondir yoki ertaga emas, aynan bugun baxtli qilish istagidagi oqilona siyosatining jahoniy aks sadosi desak, xato bo'lmaydi.

internet, Navoiy shahridagi 1-ixtisoslashgan maktab-internet, Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabining bu yutug'i ta'limdagi tub yangilanishlarning mevasi.

Jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lami keng va ular mohiyatan milliy g'urur hamda erkin tafakkurga ega, o'zini yurt taqdiriga daxldor deb biladigan barkamol shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan. Islohotlarning amaliy samarasi yoshlarimizning

yangicha yondashuv va tizimli islohotlar lozim edi. Jamiyatga yangi g'oyalari, chaqiriqlar kerak edi.

2019-yilda Prezidentimiz yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. O'tgan qisqa muddatda salmoqli sa'y-harakatlar bajarildi. Shu maqsadda ko'plab dasturlar qabul qilindi.

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr kabilarga qiziqishini oshirish bo'yicha 840 ta madaniyat markazi, 219 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabi, 10 ming 182 ta umumta'lim maktabida 93 ming 385 ta to'garak faoliyati yo'lga qo'yildi va ularga 12 million 400 ming o'g'il-qiz qamrab olindi.

Iste'dodli yoshlarni barcha qatlamli va ko'plab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab xalqaro va respublika ko'rik-tanlovlarinin muntazam o'tkazib kelinayotgani, yoshlar uchun “Kelajak bunyodkori”, “Mard o'g'lon” va Zulfiya nomidagi davlat mukofotlarining ta'sis etilgani ham navqiron avlod vakillari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Misol uchun, madaniyat va san'at yo'nalishida tashkil etilgan loyiha va tanlovlarga jami 3,2 million yosh jalb qilingan.

Mahalladan iqtidorli yoshlarni saralash, iste'dodini namoyish etishiga sharoit yaratish maqsadida 26 ta tanlov va musobaqadan iborat 5 bosqichli (mahalla — sektor — tuman — viloyat — respublika) “Besh tashabbus olimpiadasi” o'tkazilib, 13 milliondan ortiq yosh jalb etildi.

Yoshlarning zamonaviy bilimlar va axborot texnologiyalariga qiziqishini oshirish masalasi ham davlatning doimiy e'tiborida. 2025-yilda “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 325

aylandi. Bu tanlov 5 milliondan ziyod yoshni qamrab oldi. Shu kungacha mazkur tanlovning 23 g'olibi Prezident sovg'asi — avtomashinalar sovrindori bo'ldi. Bu harakatning jamiyatdagi ijobiy aks sadosi sifatida kitobga mehr qo'yib, mutolaani kundalik hayot tarziga aylantirgan, “Yosh kitobxon” tanlovida g'olib bo'lib, otanasiga avtomashina sovg'a qilish o'y-xayolida intilayotgan o'quvchilar safiga har yili minglab yangi iqtidorlar qo'shilmog'da.

O'zbekiston yangi iste'dod egalarini kashf etish va rag'batlantirish masalasida resurs va mablag'ni ayamayapti. Joriy yilda xalqaro fan olimpiadalari g'oliblari, ularning ustozlarini taqdirlash uchun davlat byudjetidan jami 12 milliard 424 million so'mga yaqin mablag' ajratilgani buning yorqin isboti. Taqqoslash uchun: 2019-yilda bu maqsadga 780 million so'm yo'naltirilgan edi va bu yilgi mablag' qariyb 17,5 barobar ko'p.

Davlat tomonidan ijtimoiy yordamga muhtoj yoshlarga ham tizimli ko'mak berilmog'da. O'tgan davrda bu qatlamni qo'llab-quvvatlashga doir tashkiliy-huquqiy kafolatlar yaratildi. “Yoshlar daftari” tizimi yo'lga qo'yilishi natijasida ehtiyojmand va ko'makka muhtoj hamda ishsiz 591 ming yosh ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ro'yxatiga kiritildi. Hududlarda tadbirkorlikni kengaytirish hisobiga 76 ming xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, 16 ming xotin-qiz kasb-hunarga o'rgatildi. Birgina “Hamrohlik dasturi”ga muvofiq, o'ta-on mehdin mahrum bo'lgan 11 ming bola ta'lim, kasb-hunar, sport tizimiga qamrab olindi.

Shu raqamlarning o'ziyoq, yurtimizda begona odam ham, begona bola ham yo'q degan tamoyilning amaliy ifodasini ko'rsatadi.

Jahondagi noyob model

Iste'dod tug'ma bo'ladi, lekin uni tarbiyalash, sayqallash lozim. Buning uchun unga alohida e'tibor zarur. Eng muhimi, iqtidor egasi bu g'amxo'rlikni o'z hayotida his qilishi kerak. Agar niholga o'z vaqtida mehr berilmasa, u o'sishdan to'xtaydi, qovjiraydi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimiga asos solindi. Shu maqsadda davlatimiz rahbarining 2019-yil 9-sentabrdagi farmoniga asosan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan



ming yigit-qiz o'qitildi. Shuningdek, yoshlar startlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha venchur sarmoya mablag'i 1 milliard dollarga yetkazilishi va maktablarda o'quvchilar uchun “mohirlik va biznes soati” kiritilib, ularning g'oyasini startapga aylantirishga 100 milliard so'm grant yo'naltirilishi belgilandi.

Yigit-qizlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida an'anaviy o'tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” respublika tanlovi o'quvchilar orasida ommalashtirib, katta harakatga

maktablarni rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Yurtimizda ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va Prezident maktablari kabi yangi modeldagi maktablar paydo bo'ldi. Bunday ta'lim modeli jahondagi noyob hodisa.

Bu tizim davlatimiz rahbarining ijod ahliga, adabiyotiga, yoshlar taqdiriga doimiy islohotlar amalga oshirilmog'da. Yangi O'zbekistonning olamni mahliyo aylayotgan ulkan zafarlari Prezidentimizning xalqimizni qachondir yoki ertaga emas, aynan bugun baxtli qilish istagidagi oqilona siyosatining jahoniy aks sadosi desak, xato bo'lmaydi. Bu siyosatning mevasi bo'lib kashf etilgan, chinakamiga qadr topayotgan va saflari tobora kengayib borayotgan iste'dodli yoshlar — Vatanimizning oltin avlodidir! G'ururimiz timsoli bo'lgan bu avlodning ovozi jahon sahnalarida tobora balandroq yangramog'da va ular o'z aqliy salohiyati, ma'naviy kamoloti bilan yangi O'zbekistonning shonli tarixini yaratmoqda.

yaratayotgan oltin avlodning kamolotida bu tizim muhim o'rin tutmoqda.

Hozir mazkur tizimda 228 ta maktab faoliyat yuritmoqda. Respublika bo'yab 182 ta tuman va shaharda tashkil etilgan maktablarga 78 mingga yaqin o'quvchi qamrab olingan va ularga 9000 pedagog ta'lim-tarbiya berib kelmog'da. Bu yildan tizimda o'quvchilarni nufuzli oliy ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlashga qaratilgan “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy dastur yo'lga qo'yildi.

Iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash, yosh iste'dodlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishda yangicha yondashuvga asoslangan ushbu tizimning muhim o'rini, keling, ijod maktablari misolida tahlil qilaylik.

Ijod maktablari badiiy adabiyot va ijodning boshqa turlariga qiziqadigan iqtidorli o'quvchilarni saralab olish orqali intellektual salohiyati va ijodiy iste'dodini yanada rivojlantirishga mo'ljallangan davlat umumiy o'rta ta'lim muassasasidir. Ayni vaqtda hududlarda Abdulla Qodiriy, Is'hoqxon Ibrat, Ogahiy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Ibroym Yusupov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf kabi millatimiz oydinlari nomidagi ijod maktablari ishlamoqda. Ularda 1928 nafar o'quvchi, ya'ni shuncha iqtidor egasi o'qimoqda.

Ulardagi ta'lim jarayoni Yozuvchilar uyushmasining hududiy bo'limlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etiladi. Uyushma a'zolari muntazam ravishda ijod maktablarda o'quvchilarning ijodiy iste'dodini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tadi.

Shuningdek, 2024-yildan buyon ijod maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilarning an'anaviy “Zomin” yosh ijodkorlar seminarida ishtirok etishi tajribasi yo'lga qo'yilgan. Unda g'olib bo'lganlarning “Mening birinchi kitobi” loyihasi doirasida birinchi va ikkinchi kitoblari shu kungacha 10 ming addada chop etilgan. Bundan tashqari, ijod maktablari o'quvchilarning ijod namunalari birlashtirgan “Ijod bog'idan guldasta” to'plamining 6 ta soni nashr etildi. Joriy yildan ijod maktablari o'quvchilari ishtirokida jahon adabiyotining dardona asarlarini audio shakliga keltirish yo'lga qo'yilib, hozir bu kabi audiokitoblar soni 55 tani tashkil etmoqda.

Ijod maktablarda zamonaviy bilim tendensiyalariga ham alohida o'rin berilmog'da. Xususan, Abdulla Oripov va Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktablarining o'quv dasturi xalqaro IB talablariga to'liq moslashtirildi.

Bu maktablarda o'quvchilarning iqtidorli ta'lim davridayoq sayqallanmoqda. So'nggi 6 yilda ijod maktablari bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichi 57 foiz o'sib, bugun 100 foizni tashkil etmoqda. Joriy yilda mahalliy oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi bitiruvchilari o'rtacha 178,4 ball ko'rsatkich bilan respublikada ikkinchi, Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi 175 ball bilan uchinchi, Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi 174,3 ball bilan to'rtinchi, Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi esa 168,9 ball to'plab, to'qqizinchi o'rinni egallab, yetakchi 10 ta maktab bo'yxatiga kirdi.

Joriy yilda Erkin Vohidov hamda Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktablarini tamomlagan bitiruvchilar dunyo reytingida ilg'or 200 talikka kiruvchilar nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga qabul qilindi.

Bugun O'zbekiston erishayotgan olamshumul yutuqlar tasodifiy emas. Vatanimizda “ulug' xalq qudrati”ni jo'sh urdirib, minglab iste'dod egalarini maydonga olib chiqayotgan keng ko'lamli, puxta o'ylangan, izchil va aniq manzilli islohotlar amalga oshirilmog'da. Yangi O'zbekistonning olamni mahliyo aylayotgan ulkan zafarlari Prezidentimizning xalqimizni qachondir yoki ertaga emas, aynan bugun baxtli qilish istagidagi oqilona siyosatining jahoniy aks sadosi desak, xato bo'lmaydi. Bu siyosatning mevasi bo'lib kashf etilgan, chinakamiga qadr topayotgan va saflari tobora kengayib borayotgan iste'dodli yoshlar — Vatanimizning oltin avlodidir! G'ururimiz timsoli bo'lgan bu avlodning ovozi jahon sahnalarida tobora balandroq yangramog'da va ular o'z aqliy salohiyati, ma'naviy kamoloti bilan yangi O'zbekistonning shonli tarixini yaratmoqda.

Mezon

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati nafaqat milliy uyg‘onish, balki butun musulmon Sharqi intellektual qayta tiklanishining muhim bosqichi sifatida tarixga kirdi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar”. Bugungi kunda mazkur g‘oyalar Yangi O‘zbekiston strategiyasida keng ko‘lamda qayta namoyon bo‘lmoqda.

Ikki yil avval Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jadid bobolarimizning g‘oyalari Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan uyg‘unligi to‘g‘risida bunday degan edi: “Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonda barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”.

Keling, ushbu uyg‘unlikni atroflicha ko‘rib chiqaylik.

Birinchidan, Yangi O‘zbekiston strategiyasida “inson qadri” tamoyili bosh mezoniga aylandi. U inson qadriini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson kapitali, ta’lim sifati, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga qaratilgan. Bu esa jadidlarning jamiyatda ijtimoiy tenglikka erishish, aholining mehnat va ijtimoiy huquqlarini muhofaza qilish yo‘lidagi intilishlari bilan mushtarakdir.

Ikkinchidan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ta’lim tizimi islohotlariga alohida



Olimjon O‘SAROV, Mudofaa vazirining vatanparvarlik targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi

urg‘u berilgan. Bunda maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, professional ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olishni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash asosiy maqsad sifatida belgilangan.

O‘z davrida jadid bobolarimiz ham millat taraqqiyoti avvalo ma’rifatdan, bilim va mahoratdan boshlanishini ta’kidlab, birinchi galda usuli jadid maktablari faoliyatini yo‘lga ko‘yg‘an. Ular maktablarda zamonaviy fanlarni joriy etib, bolalarni erkin fikrlaydigan, mustaqil va tanqidiy qarashga ega shaxslar etib tarbiyalashni maqsad qilgan. “Samarqand” gazetasining 1913-yil 9-avgustdagi sonida turkistonlik jadidlardan biri Hoji Muin Shukrullo “Yoshlarga murojaat” maqolasida bunday deydi: “Millatning taraqqiyosi aning avvali

muntazam maktablardan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko‘rub, muhofaza qilmoqchi bo‘lsak, avval saodat eshigi bo‘lgan maktabimizni zamong‘a muvofiq isloh qilish kerak”. Bu fikrlar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidlarning “ta’lim orqali milliy uyg‘onish” g‘oyasi bugungi ta’lim islohotlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Uchinchidan, yangi O‘zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvi ochliklik, jamoatchilik nazorati, inson huquqlari, parlament va mahalla institutlarini kuchaytirish bilan tavsiflanadi. Jadidlar ham jamiyatda faol fuqarolik munosabatlari va jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi davlat modelini orzu qilgan edi.

Jadidlarning Turkiston muxtoriyatini tuzish bo‘yicha eng mashhur dasturi — “Turk adami markaziyat (federalchilar) firqasi”ning maromnomasi”da bu g‘oyalar o‘z aksini topgan. Taniqli jadidshunos olim Boybo‘ta Do‘stqorayevning ilmiy tadqiqotlarida ular quyidagicha sharhlangan: “Firqa o‘z maromnomasida ilgari surgan jamiyat tizimi demokratik bo‘lishi ko‘zda tutilgandi. Bu, ayniqsa, maromnomadagi “Muxtoriyatli qit’alardagi ahliyat (fuqarolik) huquqi” qismida yorqin ko‘zga tashlanadi. Unda aholi qaysi din va qaysi mazhabda bo‘lishidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi: fuqarolarga chin ma’nosila vijdan erkinligi berilishi, bironta din va



mazhab hukumat tomonidan boshqalaridan ustun qo‘yilmasligi; har bir fuqaro o‘z fikrini aytish, matbuot yoki boshqa nashr vositalari orqali bayon etish huquqiga egaligi: fuqarolarning yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun yig‘inlar o‘tkazish, jamiyatlar

tuzish huquqi bo‘lishi, buni(ng) uchun “hech kimdan ruxsat so‘ramoqga ehtiyoj yo‘qligi”, shaxs erkinligi, oila muhofazasi daxlsiz bo‘lishi, tegishli mahkamalarning qarorisiz birona ham fuqaroning uyiga bostirib kirib tintuv o‘tkazish, xat va kitoblarini tekshirish mumkin emasligi kabi moddalar aks etgan”.

Tan olish kerakki, bundan 100 yil oldin jadid bobolarimiz tomonidan yaratilgan mazkur hujjatdagi tartib-qoidalamning aksariyati mustaqil O‘zbekiston qonunchiligida o‘z ifodasini topgan.

To‘rtinchidan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash maqsadida mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiya uzuvligini ta’minlash belgilangan.

Jadid bobolarimizning g‘oyaviy qarashlarida ham bu holat o‘z aksini topgan. Ular dunyoviy ilm-fanni ulug‘lab, taraqqiyotga erishish uchun xalqni ushbu ilmlarni o‘rganishga da’vat etgan bo‘lsa-da, asriy milliy qadriyatlar va axloq-odobni himoya qilishni ham unutmagan.

Bu borada ma’rifatparvar bobomiz Cho‘lponning quyidagi so‘zlari fikrimizning dalilidir: “Ey qarindoshlar, katta iltimosimiz shuldurki, Ovro‘paning mo‘dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o‘xshashlik madaniyatlardan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdur. Ovro‘paning mo‘dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevaton, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!” (“Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 6-iyun). Ommaviy madaniyat unsurlari va mafkuraviy xurujlar avj olayotgan hozirgi zamonda ham Cho‘lponning bu so‘zlari ogohlik qo‘ng‘irog‘i bo‘lib jaranglayveradi.

Beshinchidan, ma’rifatparvarlik islohotlarini amalga oshirish uchun jadidlarga moddiy qo‘llab-quvvatlov juda zarur edi. Shu bois, ular mamlakat boylarini yurt kelajagi uchun xayriya qilishga undagan: bu borada o‘zlari o‘lmak ko‘rsatib, ortiqcha mol-mulklarini sotib bo‘lsa-da, usuli jadid maktablarini ochgan, yoshlarni xorijga o‘qishga yuborgan. Chet elda ilm olib qaytgan millat farzandlari ko‘magida o‘lkada sanoat va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini yo‘lga qo‘yib, iqtisodiy mustaqillikka erishish ham maqsad qilingan.

Ushbu g‘oya “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida amaliy mazmun bilan yanada boyitilib, barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash, sanoatning drayver sohalarni rivojlantirish va hududlar sanoatini to‘liq ishga solish, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirishga yo‘naltirilgan alohida maqsadlarni amalga oshirish belgilangan.

Oltinchidan, jadid bobolarimiz yurtimizda milliy qo‘shin barpo etish orzusida bo‘lgan. Xususan, 1917-yil noyabrda Turkiston muxtoriyati e’lon qilingach, o‘lkamizda milliy qo‘shin safiga yozilish tashviqui boshlanadi. 1918-yil 17-yanvar kuni Toshkentda “Ishchilar dunyosi” jurnalining 2-sonida G‘ulom Zafariyning “Quvvatimiz askardir” maqolasi chop etiladi. U: “Himmatparvar turkistonlilar! Biz, turkistonlik turk bolalari Muxtoriyat e’lon etdik. Endi Muxtoriyatimiz barqaror o‘lsun desak, bizga quvvat lozim. Ul quvvat askarlikdir. Quvvatimiz bo‘lgan askarlikka jon-dil ila boqub, qalbmizni unga tufha etaylik. Aslo unutmaylik. Och, suvsiz tursak ham boshqa bir narsaga qaramasdan faqat qahramon askarimizni tushunaylik! Zero, bu islomiyat, bu turklik, bu millat buning ila yashaydi. Buning ila buyuk bo‘ladir. Buning ila shon beradi, buning ila hayot bo‘ladir, buning ila muzaffariyatga noil o‘lub jahonni titratadi. Buning ila ajdod atomiz bo‘lgan fojilarning, qahramonlarning ruhlarini shod etaylik, moziyimizni xotira keltirib istiqbolimizni ta’yin etaylik”, deya chorlaydi.

Afsuski, Turkiston muxtoriyati qonga botirildi. Uning mudofaasi uchun jonini tikkan ne-ne yig‘itlar qoni daryo bo‘lib oqdi.

Jadidlarning milliy qo‘shin barpo etish orzusi oradan 75 yil o‘tib, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng amalga oshdi. Mana, bugun kuchli milliy armiyamiz bor. Qahramon askar va ofitserlar yurtimiz tinchligi va xavfsizligini ta’minlab turibdi.

Zamonaviy avlod jadidlarning jasorati va mafkuraviy merosidan kuch olmoqda. Demak, jadid bobolarimizning tarixiy orzu-umidlari bugun yangi mazmunda ro‘yobga chiqmoqda.

Jadidchilik faqat tarixiy harakat emas, balki bugungi milliy taraqqiyot strategiyasining ma’naviy-ilmiy asosidir. Yangi O‘zbekiston o‘z islohotlarini amalga oshirar ekan, jadidlarning ta’lim, ma’rifat, iqtisod, jamiyatni zamonaviy asosda yangilash haqidagi g‘oyalari yanada mukammal va hayotiy shaklda tatbiq etilmoqda.

Ilm-fan fidoyilari



Keyingi yillarda yurtimizda ilm-fanga alohida e’tibor berildi. Imkoniyatlar eshigi ochilishi ko‘plab olimlarimizning yutuqlariga sabab bo‘lib kelyapti. Biologiya fanlari nomzodi Zamira Nurovaning hayoti va faoliyat yo‘li ham fikrimiz tasdig‘idir.

Qahramonimiz 2018-yildan buyon Toshkent tibbiyot universiteti Termiz filiali kafedra mudiri, dotsenti sifatida samarali ishlab kelmoqda. Olima yurtimizdagi imkoniyatlardan samarali foydalanib, yomon yara, xalq tilida aytganda, pashshaxo‘rda kasalligi bilan og‘rigan bemorlarni samarali usullar bilan davolash bo‘yicha ilmiy ishga qo‘l urdi. Uning bu tadqiqoti muvaffaqiyatli bo‘ldi.

Surxon vohasida yashovchilar leyshmanioz, ya’ni pashshaxo‘rda haqida ozmi-ko‘pmi biladi. Pashshaxo‘rda odam va hayvonlarda uchraydigan transmissiv protozoyni kasalligidir. Uning qo‘zg‘atuvchisi leyshmaniylar hisoblanadi, tashuvchisi esa chivinlar. Xastalik belgilari isitmalash, ichki a’zolar yoki teri to‘qimalari shikastlanishi bilan namoyon bo‘ladi. Kasallikning yuqishi, asosan, yilning issiq oylariga to‘g‘ri keladi. Yashirin davri turlicha bo‘lgani tufayli mavsumiylik xarakterli emas. Kasallangandan so‘ng butun umr davomida saqlanuvchi immunitet hosil bo‘ladi. Ba’zan u qaytalanishi ham mumkin.

Olima Zamira Nurova bu kasallikka qarshi ta’sirchan preparatlar va da’vo muolajalarini yaratish borasida qator izlanishlar qildi. Unga qarshi 11 turdagi shifobaxsh vosita uchun xalqaro mualliflik



huquqini oldi. Uning ixtirolari Rossiya, Qirg‘iziston, Tojikistonda patentlangan. Ayni paytda olima yaratgan malhamlar

laboratoriya sharoitida ishlab chiqarilmoqda va xorijga eksport qilinyapti.

Inson qadri uchun islohotlar boshlangach, olimlar mehnati alohida e’zozlandi. Bundan qahramonimiz Zamira Nurova ham bebahra qolgani yo‘q. U II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

— Ustozning 100 dan ortiq ilmiy maqolasi AQSH, Britaniya, Turkiya, Rossiya va Yevropa nashrlarida chop etilgan. Uning 2 ta monografiyasi, 2 ta o‘quv qo‘llanmasi va

10 dan ortiq uslubiy qo‘llanmasi mavjud. U nafaqat yetuk olim, balki 4 farzandni tarbiyalagan mehribon ona, jamoada talabchan va fidokor ustoz sifatida ham katta hurmat qozongan, — deydi Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali direktori Furqat Otamurodov.

So‘nggi yillarda tibbiyot sohasida tub islohotlar qilinyapti. Masalan, joriy yilda

“Inson qadri uchun islohotlar boshlangach, olimlar mehnati alohida e’zozlandi. Bundan qahramonimiz Zamira Nurova ham bebahra qolgani yo‘q. U II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Surxondaryo viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi negizida qiymati 79,6 milliard so‘m bo‘lgan zamonaviy tibbiyot klasteri foydalanishga topshirildi. Natijada jigar va buyrak ko‘chirish, yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlari vohaning o‘zida amalga oshirilmoqda. Hududdagi birlamchi tibbiyot muassasalarida umumiy qiymati 40 milliard so‘mlik qurilish va ta’mirish ishlari bajarildi. Aholi va xodimlar uchun qulay, zamonaviy sharoit yaratildi.

— Ayni paytda tibbiyot muassasalari faoliyatini tartibga solish, xususiy sektorni litsenziyalash tizimi takomillashdi, — deydi Zamira Nurova. — Natijada ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va turlari yanada ko‘paydi. Xorijdan olib kelinadigan yangi tibbiy asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, ehtiyoj qismlar va zarur materiallar uchun turli imtiyozlar belgilandi. Bunday imkoniyatlarning barchasi soha rivoji uchun xizmat qilayapti.

Zamira Nurovaning mehnat va izlanishlarida bitta umumiy tamoyil bor — to‘xtamaslik! So‘nggi yillardagi ijobiy o‘zgarishlar esa u kabi mas’uliyati va fidoyi insonlarni yanada samarali mehnat qilishga undamoqda.

Sarvar TO‘RAYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri